

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB PSIXOLOGIK VAZIFALARI

*Sharipova Ismigul Baxodir qizi
Namangan viloyati Pop tumani 36-maktab psixologi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlarni kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, matn kompozitsiyasi, savodxonlik.

KIRISH

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsion vositalar xizmatidan foydalanish sur'ati keskin ortayotgan, fuqarolarning talab, ehtiyoj va maqsadlarini qondiruvchi moddiy manbalar yetarlicha ishlab chiqarilayotgan davr – innovatsion texnologiyalar asri bo'lib tarixga kirmoqda. Insoniyatning farovon, to'kinsochin hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, "insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi", yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O'zbekiston, yurtboshimiz e'tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Davlat va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalari qancha taraqqiy etsa, insonlarning ilmiy-ma'naviy salohiyati ham shunga mos va mutanosib bo'lishi lozim. Fuqarolarning ilmiy iqtidori, rahbarlik salohiyati, harbiy bilimlari, kasbiy mahorati yuqori saviyada bo'lishi bilan birga, ularning shaxsiy fazilatlari: insoniylik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ulari qanchalik kuchli bo'lsa, davlatimiz poydevori ham, kelajagi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rinnegi egallash yo'lidan sobitqadamlilik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z oldiga qo'ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat'iy bo'lmog'i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan sobitqadam avlodlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun,

avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash” maqsadida keyingi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Kitobsevarlar o’rtasida o’tkaziladigan ko’rik-tanlovlar respublika miqyosida ommalashtirildi va shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan rag’batlantiruvchi sovrinlar belgilandi. Yoshlarning kitob o’qishga ishtiyobi ortdi. Nashriyotlarda badiiy asarlarni bir necha nusxada chop etish va hududlarga tarqatish ishlari sur’ati oshdi. Biroq, tan olish kerakki, bu maskanlar hali gavjum go’shalarga yetarlicha aylanib ulgurbanicha yo’q. Demak, jamiyatimizda kitobga mehr qo’yish, kitobxonlikka qiziqish eng zarur ehtiyoj ekanligiga aholi o’rtasida hali to’liq e’tibor qaratilmagan. Pedagog sifatida tajribamizdagи kuzatishlardan kelib chiqib bu holat yuzasidan ayrim mulohazalarimizni aytib o’tmoqchimiz.

Xalqimiz turmush tajribasidan ma’lumki, ajdodlarimiz farzand tarbiyasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratishgan. Buyuk Navoiy-u Bobur, Amir Temur-u Ulug’bek kabi alloma-yu ijodkorlarimiz, tojdor-u daholarimiz ma’naviyati bolalikdan kitobga mehr qo’yish bilan shakllangan. Ajdodlarimiz xalq ertaklari-yu dostonlarini tinglab tasavvur va tafakkur dunyosini, ruhiyat olamini boyitishgan. Adabiyot durdonalari – xoh xalq og’zaki ijodi namunalari, xoh yozma asarlar bo’lsin – xalqimiz qalbida yurtiga, ona tiliga, oilasiga, vatandoshlariga mehr-muhabbat va sadoqat, milliy g’urur, or-nomus,adolat-u insof, andisha-yu hurmat, olijanoblig-u saxovatpeshalik sifatlari shakllanishida asosiy vosita bo’lib xizmat qilgan. Bunday ma’naviyat durdonalari mutolaa qilingan, tinglangan, eng muhimi, oila davrasida yoki jamoat ichida muhokama qilingan, babs-u tortishuvlar asosida asarlar mazmun-mohiyati anglangan, anglatilgan. Ahamiyatlisi shundaki, yosh-u qari birday qiziqish bilan ishtirok etadigan bunday davralarda mushohada qilish va mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, keng dunyoqarash va tafakkur shakllangan, e’tiqod va iroda mustahkamlangan, notiqlik mahorati o’sgan, kishilar ongi ham ma’nan, ham ruhan, ham ilman boyib borgan. Bugungi kunda esa juda ko’p xonadonlarda oilaviy mutolaaga deyarli vaqt ajratilmaydi. Aksariyat oilalarda xonadon sohib-u sohibasi doim ish bilan bandligi bois kechki taomdan so’ng kunning charchog’ini yozish uchun yoki oynayi jahon yoniga cho’kadi, yoki dam olish uchun uyquni afzal bilishadi. Hatto shunday oilalar borki, ota-onalarning o’zi uyda vaqtini farzandi bilan emas, telefon-u kompyuter bilan o’tkazishni afzal ko’rishadi. Bolalarining injiqlariga bardosh berish, ularga ruhan yaqin bo’lish, yutuqlari va muammolari bilan qiziqish o’rniga, ularning o’qishi o’qituvchilariga yuklab qo’yladi yoki faqat ta’limiy fanlardan o’zlashtirishi nazorat qilinadi, ta’lim-tarbiya berish, asosan, o’quv maskanlaridagi ustoz va murabbiylar zimmasidagi ishdek bo’lib qoladi. Kunning qolgan qismida yolg’iz yoki

nazoratsiz qolgan bola, asosan, mustaqil dars tayyorlaydi, oq-u qorani, kerakli-keraksiz narsalarni to’la idrok etib ulgurmagan, hali bolaligiga boradigan yoshdag'i farzand zangori ekran bilan “dos’tlashib” oladi, uning yonida asosiy vaqtini o’tkazadi, lekin tomosha qilgan ko’rsatuvlari, o’qibo’rgangan bilimlarining mohiyatini anglab-anglamay (!) kunlarini o’tkazaveradi. Eng achinarlisi, hozirda yoshlarning aksariyati turli rusumdag'i uyali aloqa vositalari yoki kompyuter texnikasi xotirasidan mustahkam joy olgan ko’ngilochar o’yinlarning (yanada dahshatlisi – bu o’yinlarning ko’pchiligida otishma, qotillik, jangarilik, mustlashish sahnalarining ko’pligi), internet orqali yuklab olingan, lekin yoshiga mos bo’lmagan film va suratlarning ashaddiy ishqiboziga aylanib qolayotganlaridir. Bola nimani qanday o’qishni bilmasa, o’qigan narsasini uqmasa yoki mohiyatini anglamasa, undan hech qanday bilim va zavq ololmaganidek, bu kabi nojoiz o’yinlardan ham hech qanday estetik zavq va ma’naviy quvvat ololmaydi, aksincha, unda o’ychanlik, jizzakilik, asabiylik, beparvolik, loqaydlik, mas’uliyatsizlik, dangasalik, maqsadsizlik kabi yana bir qator salbiy illatlar shakllanib, ruhiyati va xarakteriga tobora mustahkam o’rnashib boradi. Buyuk alloma, haqiqiy vatanparvar, yuksak salohiyatli ustoz Najmiddin Kubro “Muvaffaqiyatni sa’y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko’rdim” degan ekanlar. Shu bois oila boshliqlari farzandlar taqdiriga bee’tibor bo’lmasliklari, bolalar bilan ularning yoshiga mos kitoblar mutolaasini yo’lga qo’yishlari va o’qilgan asarlar, olingan bilimlar, ularning inson hayotidagi o’rni va ahamiyati yuzasidan oilaviy suhbatlar o’tkazishlari, ko’proq o’gil-qizlarining fikrmulohazalarini tinglashga diqqatni qaratishlari, ularni qo’llab-quvvatlashlari, kamchiliklarini muloyimlik va bosiqlik bilan tuzatishlari kerak bo’ladi. Bu holat oilada nafaqat kitobsevar farzandlar kamol topishiga erishishda yordam beradi, balki oila a’zolari o’rtasida do’stona muhitni shakllantirishda ham, ota-onaga hurmat va o’ziga ishonch tuyg’ularining mustahkamlanishida ham, mulohazakorlik, mas’uliyat, javobgarlik, tejamkorlik, vaqtini qadrlash, tabiat va jamiyat, yurt uchun kerakli inson bo’lishga intilish sifatlarini o’stirishda ham o’ziga xos poydevor vazifasini o’taydi.

Demak, har bir ota-onada farzandining nafaqat jismoniy, balki ham aqliy, ham ruhiy, ham ma’naviy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi, yoshiga mos badiiy kitoblar bilan ta’minlab turishi, o’qigan kitoblari yuzasidan ular bilan fikr almashishi, bolani rag’batlantirib borishi lozim.

MUHOKAMA

“Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo’lgan intilishlarini ro’yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o’rta va oily o’quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o’quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”, -deydi yurtboshimiz. Ta’lim sohasi faoliyatini kitoblarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ta’lim jarayonida o’quvchi ham, o’qituvchi ham bevosita kitob mutolaasiga ehtiyoj sezadi. Bu quvonarli, albatta.

Lekin hozirgi kunda o'quvchilar asosan ilmiy adabiyotlar, darslik va qo'llanmalardan foydalanayotganlari bois badiiy asarlar mutolaasiga vaqt ajratishga imkoniyatlari cheklanyapti. O'quvchi faqat adabiyot darsida o'qituvchi bergan vazifani bajarish uchungina badiiy asarlarni qo'lga olyapti. Natijada esa ma'lum: mutolaa jarayoni sevimli mashg'ulot emas, majburiyatga aylanib qoladi. Kitob mutolaasiga havasi bolalikdan paydo bo'lмаган o'quvchi keyinchalik berilgan katta hajmli asarlarni o'qishga kuch topolmaydi, ishtiyoq sezmaydi, xohish bildirmaydi, faqat darslikda berilgan qisqartirilgan parcha bilangina tanishadi va yozuvchining butun asar mazmuniga singdirib yuborgan pafosini, g'oyaviy-badiiy maqsadini to'la angololmaydi, badiiy asarlarning haqiqiy zavqidan bebahra qoladi, adabiyotning haqiqiy kuchini, qudratini his qilmaydi, natijada kitob o'qishga mehr qo'ymaydi. Kam o'qishning salbiy oqibatlari juda ko'p: kishida mustaqil fikrlash qobiliyati, voqelikni teran idrok etish, hodisalarga munosabat bildira olish, oq-qorani farqlay bilish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi; milliy madaniyat, tarix va an'analar bilan keng tanish bo'lmaydi; ma'naviy qashshoqlik va ojizlik kelib chiqadi; hayotda muammolarga duch kelganda yechim topishga qiynaladi, o'zini irodasiz sanaydi; savodxonligi past bo'ladi, so'z boyligi kamligi sababli fikrini to'la ifodalab berolmaydi; madaniy nutq uchun qo'yiladigan (aniqlik, to'grilik, mantiqiy muvofiqlik, jo'yalilik, soflik kabi) talablarga mos, kompozitsion jihatdan mukammal matn yaratishda, jumlalar tuzishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning isboti sifatida aytishimiz mimkinki, ona tili va adabiyot darslarida insho, bayon, diktant yozdirganimizda, aksariyat ta'lim oluvchilarning yozma ishida juda ko'p imlo, ishoraviy va uslubiy xatolar uchrashiga, ko'pchilik o'quvchilarning ijodiy ishlari saviyasi juda past ekanligiga guvoh bo'lamiz. Hatto darsda o'rganilayotgan badiiy parchalarni g'oyaviy-badiiy tahlil qilishda, ularning estetik ta'siri haqida bahs-munozara qilishda o'quvchi jo'yali fikr aytolmaydi, munosabat bildirolmaydi. O'quvchi bilan suhbat o'tkazganimizda ular oxirgi marta qachon qaysi badiiy asarni o'qiganlarini aytolmaydilar, mutolaa qilgan badiiy asarlari ro'yxati bilan qiziqqanimizda, afsuski, ularning nomi sanoqligina bo'ladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilarga har hafta bitta ma'lum nomdag'i badiiy asarni o'qishni topshiriq sifatida beramiz va belgilangan muddatda guruh o'quvchilari bilan o'sha asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini o'rganib chiqamiz.

NATIJA

Mustaqil o'qish uchun berilgan asarlarni tahlil qilganimizda o'quvchida badiiy kitob o'qish ishtiyoqi ortganining, unda hayrat, zavq paydo bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Demak, yosh avlodning ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularga kitob tanlashni, uni o'qishni, tahlil qilishni muntazam o'rgatib borish kerak, buning uchun esa, bizningcha, adabiyot va ona tili fanlaridan dars soatlarini ko'paytirish, mashg'ulotlarni guruhlarga bo'lib o'tkazilishi tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning natijasida tahsil oluvchilarga individual yondashish imkon ortadi,

darslarning samaradorligi oshishiga erishiladi. Shuningdek, o'quvchilar mutaxassis o'qituvchilar bilan ko'proq suhbatda bo'lib, ulardan tajriba o'rghanadilar. Ta'limgartarbiya jarayonida tom ma'noda davr talabiga mos haqiqiy vatanparvar, salohiyatli, dadil yoshlarni, g'oyaviy-mafkuraviy va intellektual jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashda, zarur ma'naviy ehtiyojlarni qondirishda adabiyot darslarining insonshunoslik, ruhshunoslik, axloqshunoslik sifatlari to'la namoyon bo'ladi.

XULOSA

Shubhasiz, insonlarning ehtiyojlari oshib boraveradi, lekin har qanday davrda ma'naviy ehtiyojning qadri ortsa ortadiki, hech qachon yo'qolmaydi. Ma'naviy tanazzul jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi, ma'naviy barkamollik jamiyat taraqqiyotiga asosiy mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – "Zarafshon", 2018-yil 29-dekabr, 155-156сон.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – "Zarafshon", 2020-yil 30-dekabr.
5. O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak. – "Xalq so'zi", 2018-yil 19-dekabr, 262-son.
6. Ahmedova Z. Bola tarbiyasida psixolog maslahatlari. – Toshkent, 2018.
7. www. ziyonet.uz.
8. www. edu.uz.
9. www. kitob.uz.
10. www. mustaqillik.uz. 11. www. ma'naviyat.uz.